

mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. [2].

Xorijiy va mahalliy mehnat bozori, ish beruvchilar tomonidan mutaxassislarga qo'yilayotgan malaka talablarini puxta o'rgangan holda biz tayyorlayotgan mutaxassislar uchun qanday kompetensiyalar zarur bo'lishini oldindan aniq belgilab olishimiz hamda ta'lim jarayonini shunga moslab, tashkil etishiz lozimligini anglatadi.

Xulosa. Kompetensiyalar asosan real ish o'rnida aynan natija va samaradorlikka qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Har bir mamlakatning mehnat bozori o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanganligi sababli tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona va umume'tirof etilgan ro'yxati hanuzgacha shakllanmagan. Kompetensiya - bu jarayon yoki vaziyatga asoslangan holda ish joyidagi samarali va/yoki yuqori natijalar bilan bog'liq bo'lgan shaxsning asosiy xususiyatidir. Kompetensiya – har bir ish beruvchining ish jarayonidan kelib chiqib o'z xodimlariga qo'ygan talabi bo'lganligi sababli farqli jihatlarga ega. Kompetensiyalar: texnik va turli bilim va ko'nikmalar, shuningdek, xatti-harakatlar va yashirin bo'lgan motivlar, xarakter xususiyatlari va o'zini o'zi anglash.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *Pedagogika: ensiklopediya I jild. – T.: O'zbekiston, 2015. 376 b.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni*
3. *Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. //Ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2017. 45 b.*
4. *Xolmuxamedov M.M. Ta'lim natijalari konsepsiyasi asosida professional ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning ilmiy-metodik asoslari dissertatsiya, Toshkent–2023.*

O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DEMOGRAFIYANING O'RNINI

Abduraxmanova Zuxra

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti*

Odatda har qanday mamlakatda yuqori demografik sur'at, aholi soni va nikohlarning yuqori tezlikda ortib borishi uning iqtisodiy parametrlariga bosimni oshirish bilan birga, ushbu yo'nalishda qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishi past bo'lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu jihatlarni ko'rish mumkin. Lekin bularning barchasiga qaramay, agar mamlakat to'g'ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib

borsa, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining ortishidan ijobiy natija bo'lishi ham mumkin. Bunga misol tariqasida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali demografik bosimdan ijobiy natija chiqarish mumkin. Ma'lumot uchun, Jahon bankining 192 mamlakatda o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda jismoniy kapital umumiy boylukning 16 foizini, tabiiy kapital 20 foizni, inson kapitali esa 64 foizni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va Shvesiyada inson kapitali ulushi 80 foizga yetadi, Rossiyada esa atigi 14 foizni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda esa undan ham past daraja saqlanib qolmoqda.

Mamlakatda demografik jarayonlar bilan hamohang tarzda rivojlantirilishi lozim bo'lgan iqtisodiyotning yana bir tarmog'i borki, bunga ham alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Bu – oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va aholini ta'minlash. Chunki, aholi ortib borgani sari nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, balki boshqa kundalik buyumlar va xizmatlarga ham birdek talab ortib boraverishi tasdiqlanmaydigan aksiomadek holatdir. Oxirgi yillarda qator oziq-ovqat mahsulotlariga aholi soni va takribi o'zgarishidan kelib chiqib talab ortib bormoqda.

Jumladan, birlamchi mahsulotlar – un va un mahsulotlari, o'simlik yog'I, go'sht, sut va boshq mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda aholi talabini qondirish ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda. Mamlakat hukumati tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash, dunyo bozorida to'xtovsiz narxi oshib borayotgan mahsulotlarni ichki bozorda yetarli zahirasini yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning uchun ba'zi mahsulotlar (o'simlik yog'i, go'sht va boshq.)ning mamlakatimizga olib kirilishga turli imtiyozlar qo'llab, bojxona va boshqa to'lovlardan ozod qilish, ta'minotchi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash kabi ta'sirchan choralar ko'rilmogda. So'nggi yillarda aholining birlamchi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi yuqori darajada ortib borayotganligi sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni mamlakatda qayta ishlash, shuningdek, ichki iste'molda yetarli bo'lmagan mahsulotlar importini yanada oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son qarori bilan tasdiqlangan 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarda belgilangan 2-maqsad, ya'ni "oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish" bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar tomonidan qator vazifa va indikatorlarni ta'minlash ko'zda tutilgan. Ushbu vazifalarda ayniqsa, 2.1- va 2.2-vazifalarni alohida ta'kidlash lozim. Chunki ularda to'g'ridan to'g'ri aholining soni va yosh guruhlariga tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan masalalar o'rin egallagan. Aholining to'yib ovqatlanmasligi, sifatli va balanslashgan oziq-ovqatlarni iste'mol qilmasligi uning, ayniqsa bolalar, o'smirlar va homilador ayollarning jismoniy holatiga salbiy ta'sir etishini unutmazlik lozim

Demografik jarayonlarning iqtisodiy taraqqiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi

Demografik jarayonlarning iqtisodiy taraqqiyot bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:		
1.	Birinchidan	-mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barcha tarmoqlarida u yoki bu ko‘rinishda demografik jarayonlar bilan bog‘liqlik mavjudligini unutmaslik lozim.
2.	Ikkinchidan	-mamlakatning YaIMi, iqtisodiy o‘sishi va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblaganda, turli reytinglarni yuritayotganda albatta aholi soni va tarkibi muhim rol o‘ynaydi, aholi sonining ortishi yoki kamayishi yuqoridagi parametrlarda ham ko‘rinishi mumkin.
3.	Uchinchidan	-mamlakat yoki hududlarning ichki budjetini shakllantirish, tashqi qarzlarni yoki xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hududlarning demografik holatini inobatga olish kerak.
4.	To‘rtinchidan	- aholi bandligini oshirish, uy-joy, infratuzilmalar, oziq-ovqat va boshqa zurrur ehtiyojlarini ta‘minlash chora-tadbirlari hamda rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqishda albatta, aholi soni va tarkibi, shuningdek, demografik jarayonlarning borishini inobatga olish lozim.
5.	Beshinchidan	-aholi bilan bog‘liq dasturlar, jumladan, demografik rivojlanish va demografik siyosat olib borishda ham o‘z navbatida mamlakat va hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy holatini hisobga olish tavsiya etiladi.

. Hujjatning 2.2-vazifasida 2030 yilgacha to‘yib ovqat yemaslikning barcha shakllariga barham berish, jumladan, 2025 yilgacha besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning fiziologik holati va vaznidagi salbiy holatlarga qarshi kurashishga oid xalqaro darajada kelishilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish hamda o‘smir qizlar, homilador va emizikli ayollar, keksa odamlarning ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish belgilangan bo‘lib, bu yuqorida ta’kidlangan demografik jarayonlarga birlamchi ta’sir etuvchi omillardan sanaladi.

Demak, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan hayotiy ehtiyojlarini sifatli qondirish oziq-ovqat bozorining qanchalik samarali faoliyat yuritishiga bog‘liq. Ichki oziq-ovqat bozoridagi vaziyatni yaxshilash uchun faqat bir nechta mahalliy innovatsiyalarni joriy etishning o‘zi kifoya emas, uning faoliyati va rivojlanishini belgilab beruvchi barcha tizimlarni kompleks takomillashtirish zarur. Shuni hisobga olib, O‘zbekiston oziq-ovqat bozorini rivojlantirish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini va ularni ta‘minlash choralari ko‘rish lozim.

O‘zbekiston oziq-ovqat bozori holatini yaxshilashning yana bir yo‘nalishi oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimini takomillashtirishdir. Belgilangan yo‘nalishni amalga oshirish uchun quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin: qishloq xo‘jaligi xom ashyosi ishlab chiqarish joylari yaqinida qayta ishlash ishlab chiqarishni rivojlantirish; ishlab chiqarish hajmini oshirish, uning sifatini yaxshilash, tannarxni pasaytirish yoki boshqa ijobiy oqibatlariga olib keladigan yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish; oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro sifat standartlariga muvofiqlashtirish, chunki aks holda

mahalliy ishlab chiqaruvchilar xorijiy davlatlar tomonidan savdoda tarifsiz texnik to'siqlardan foydalanishdan zarar ko'radi, shuningdek, O'zbekistonliklarning mahalliy mahsulotlarga nisbatan ishonchsizligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. *“United Nations Environment Programme (UNEP)”* 2020-yil 27-mart.
2. <https://demografiya.uz/ilmiy.uz.com>, Demografik-jarayonlarning-mamlakat-iqtisodiy-taraqqiyotiga-ta'siri.2023-yil.
3. *“Green Economy Roadmap“*. *International Chamber of Commerce* (2012). 2021-yil 5-fevralda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2021-yil 31-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son qarori.
5. *“Ijtimoiy hayot va demografik bosimlar”* Xalq so'zi 2022-yil 18-may.

MAMLAKATIMIZDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IJTIMOIIY MAS'ULLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Bayisbayev Javlon

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti*

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar dinamikasi doimiy o'zgaruvchan muhitga moslashishni talab qiladi. Bugun standart bo'lgan narsa ertaga uzoq vaqt unutilgan va samarasiz texnologiya bo'lishi mumkin. Jahon iqtisodiyotining evolyutsiyasi barqaror rivojlanishga intilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va sanoatning taxminlariga muvofiq o'zgarishlar kabi hodisalar bilan belgilanadi.

Eng muhimi, diqqat bilan kuzatish, bozor ehtiyojlarini qondiradigan innovatsion yechimlarni aniqlashtirishga olib kelishi mumkin. Aynan innovatsiyalar o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, kompaniyaning biznes zanjiridagi mavqei belgilaydigan raqobatchilardan ustunlik yaratishning asosiy stimullaridan biridir. Bozorning hozirgi faoliyati tadbirkorlik subyektlarining bilvosita innovatsiyalarni joriy etishga majbur qiladi, chunki faqat bunday faoliyat ularning omon qolishini kafolatlaydi.

Ijtimoiy tadbirkorlar - bu ijtimoiy faollar, o'zlari va boshqalar uchun himoyachilar, shuningdek, ijtimoiy missiyaga ega bo'lgan notijorat biznes va notijorat tashkilotlarini ishlab chiquvchilardir. Ularning harakatlari bevosita ijtimoiy xizmat ko'rsatish yoki bilvosita pul yig'ish, ijtimoiy muammolar va ehtiyojlar haqida xabardorlikni keltirib chiqaradigan ma'lumotlarni yetkazish orqali boshqalarga yordam beradi.

Ijtimoiy tadbirkorlik yangi korxonalar yaratish yoki mavjud tashkilotlarni innovatsion usulda boshqarish orqali ijtimoiy boylikni oshirish uchun imkoniyatlarni kashf qilish, aniqlash va ulardan foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat va jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tadbirkorlar o'z kompaniyalarini ijtimoiy ishni qo'llab-quvvatlashga undaydigan odamlar bo'lishi mumkin. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslari kompaniya uchun ham, tashabbuslar yordam beradigan odamlar uchun ham foyda